



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI


2022- YILNING
YANVAR OYIDA



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdag'i vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qildi.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **871,4 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **116,9 mlrd. so'mga** oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **108,0 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



O'sish sur'ati



Xizmatlar hajmi



Hajmning
o'sishi

2021- y. yanvar



Xizmatlar hajmi



O'sish sur'ati

2022- y. yanvar

**SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



Dastlabki ma'lumotlar


2022- yil yanvar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)	Hajmi, mldr. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	871,4	108,0
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	44,0	121,4
Moliyaviy xizmatlar	191,2	125,8
Transport xizmatlari	125,8	110,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	115,9	108,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	26,6	101,6
Savdo xizmatlari	324,2	108,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	22,4	111,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	30,3	86,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	13,0	118,8
Ijara xizmatlari	20,5	42,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	22,8	108,4
Shaxsiy xizmatlar	25,1	108,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	6,4	93,1
Boshqa xizmatlar	19,1	124,8

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2022- yil yanvar oyida bu xizmatlarning ulushi **37,2 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy (**21,9 %**), transport xizmatlar (**14,4 %**), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**5,2 %**) bo'yicha qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

Transport xizmatlari hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **14,4 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar oyida savdo xizmatlari umumiyligi hajmning **35,9 %** ini tashkil etgan. 2021- yilning shu davrida transport xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **14,3 %**.

Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi.

Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.



2022- yil yanvar oyida yuqori o'sish moliyaviy xizmatlarda (**25,8 %**), boshqa xizmatlari (**24,8 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**21,4 %**), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlari (**18,8 %**), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**11,8 %**), transport xizmatlarida (**10,2 %**) hamda kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarida (**8,4 %**) qayd etildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi savdo xizmatlarda (**8,1 %**) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar



Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri kelmoqda. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

2021- y. yanvar

61,5

38,5

Yuk tashish

2022- y. yanvar

65,1

34,9

Yo'lovchi tashish

2022- yilning yanvar oyida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **34,9 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar oyida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **38,5 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini iste'molchiga yetkazib berishdek zarur vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yilning yanvar oyida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida savdo xizmatlarining ulushi **37,2 %** ni tashkil etib, bu **324,2 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar oyida ularning hajmi **271,1 mlrd. so'mga** yoki umumiylajmning **35,9 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiyl savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismini, aniqrog'i, **84,6 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar oyida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **11,0 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**4,4 %**) tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi
(2022- yilning yanvar oyida)



Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar oyida chakana savdo ulushi **85,0 %** ga yetdi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingen foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar oyida)

2022- yil yanvar oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **191,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar oyida ularning hajmi **151,4** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2022 - yilning o'tgan davrida ularning umumiylar hajmidagi ulushi **21,9 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar oyida ularning ulushi **20,1 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **39,8** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar oyida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **25,8 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar oyida ularning o'sish sur'ati **106,2 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **96,6 %** ni tashkil etdi.


2022- yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **2,1 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **1,3 %** ni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2022- yil yanvar oyida)**

**Sug'urta va nafaqa
ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

**Yordamchi
moliyaviy
faoliyat**



**Sug'urta
bo'yicha
xizmatlar**

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar oyida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **93,8 %** ni sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **2,8 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **3,4 %**.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekomunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2021- y. yanvar

2022 y. yanvar

36,2

**Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm**

44,0

114,5

**O'sish sur'ati,
% da**

121,4

4,8

**Jami hajmdagi
ulushi, % da**

5,1


Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2022- yil yanvar oyida ularning ulushi **94,7 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da

2021-y. yanvar



2022-y. yanvar



Telekommunikatsiya xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **94,5 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar



2017-2022- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariiga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2022- y. yanvar

86,6 %

2021- yilga nisbatan o'sish sur'atlari

144,3 %

2021- y. yanvar

30,3
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari
hajmi

31,7
mlrd. so'm

3,5 %

Umumi
hajmdagi ulushi

4,2 %

2022- yilning yanvar oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **30,3 mlrd. so'mga** yetdi yoki bozor xizmatlari umumi hajmining **3,5 %** ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati **86,6 %** ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**2021- y.
yanvar**

**2022- y.
yanvar**

Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm

10,4

13,0

1,4

1,5

100,8

118,0

**Xizmatlar jami hajmidagi
ulushi, % da**

O'sish sur'ati, % da



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatalgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

21,8

Xizmatlar
hajmi, mlrd.
so'm

102,2

O'sish sur'ati, % da

2,9

Xizmatlar jami
hajmidagi ulushi,
% da

26,6

101,6

3,1

2021- y.
Yanvar

2022- y.
Yanvar


Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

2021-yil yanvar oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **4,8** mlrd. so'mga ko'paydi.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da

2021- y.
yanvar



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

2022- y.
yanvar



Yashash bo'yicha
xizmatlar

2022- yil yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **86,6** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar oyida ushbu xizmat turlarining ulushi **86,7** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar oyida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da 2022- y.	O'sish sur'ati, % da 2021- y.
Surxondaryo viloyati	871,4	108,0	107,9
Termiz sh	236,5	106,7	109,5
Oltinsoy	33,7	108,6	105,6
Angor	37,5	108,3	104,3
Bandixon	18,3	107,9	103,5
Boysun	25,9	108,9	106,5
Muzrabot	38,3	107,1	106,6
Denov	119,7	109,7	108,7
Jarqo'rg'on	52,6	108,9	106,5
Qumqo'rg'on	61,9	106,1	107,3
Qiziriq	33,6	109,4	106,6
Sariosiyo	53,5	108,7	105,9
Termiz	34,1	109,0	105,8
Uzun	35,6	108,0	104,6
Sherobod	44,9	109,1	108,5
Sho'rchi	45,3	107,9	105,4

**) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda*


Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

**Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da
(2022- yil yanvar oyida)**



Xizmatlar sohasining eng past ko'satkichlari Bandixon tumanida – 2,1 % (2021- yilning yanvar oyida – 2,0 %) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi



Hajmning o'sishi

37,1 ming so'mga



O'sish sur'ati

2022- yilning yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **321,3** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **105,7 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2021- yilning yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **284,2** ming so'mni tashkil etgan.

2020 - yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan o'sish sur'ati **105,6 %** da qayd etilgan.

Dastlabki ma'lumotlar


2022- yil yanvar

Aholi jon boshiga ko'rsatiladigan bozor xizmatlari hajmining o'sishi har oyda kuzatilmogda. 2022- yilning yanvar oyi uchun ushbu ko'rsatkich hududlar bo'yicha Termiz shahrida **1270,5** ming so'mdan Termiz tumanida **428,9** ming so'mgachani tashkil etdi.

Ushbu hududda jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichning pastligi u yerdag'i aholi sonining ko'pligi bilan bog'liq.

Taqqoslash uchun: Qumqo'rg'on tumanida o'rtacha doimiy aholi soni nisbatan kam (202- yil 1- fevral holatiga ko'ra **241,1** ming kishi), ammo aholi jon boshiga ko'rsatiladigan bozor xizmatlari hajmi nisbatan yuqori. Kuzatilayotgan davr uchun ushbu ko'rsatkich **256,9** ming so'mni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga xizmatlar ishlab
chiqarishning asosiy ko'rsatkichlari**



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2022- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni



17 310
birlik



1782
birlikka
o'sgan



2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati



111,5 %



60,6 %

2021- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi


Ularning umumiyl sonidagi ulushi

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

2022- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **60,6 %**, sanoat **16,4 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **13,3 %** ni tashkil etdi. Qurilish sohasining ulushi esa **9,7 %** ga to'g'ri keldi.

**2022- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Taqqoslash uchun: 2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **60,5 %** ni, sanoat **16,1 %** ni, qurilish **9,8 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **13,6 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

**2022- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**47,4 %**).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **10,0 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **4,9 %** ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **1,9 %** ga teng bo'ldi.

Sog'lijni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **2,6 %** ni tashkil etdi.

Savdo – 47,4

Boshqa turdagি xizmatlar – 33,2

Yashash va ovqatlanish –10,0

Tashish va saqlash – 4,9

Axborot va aloqa – 1,9

Sog'lijni saqlash – 2,6


Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2022- yil yanvar oyida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **54,7 %** ni tashkil etdi.

**2022- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

2022- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **77,8 %** ga to'g'ri keldi.

1- fevral
holatiga

2021 - y.

75,9 %

2022 - y.

77,8 %

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: (76) 225-65-91